TILSHUNOSLIKDA EVFEMIZM TUSHUNCHASI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA TALQINLAR

Nurqulov Javlon Rashid o'g'li
O'zDJTU Nemis tili nazariy fanlar kafedrasi stajor-o'qituvchisi
javlon.nurkulov0505@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21193107

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilshunoslikda evfemizm tushunchasi, unga berilgan ilmiy ta'riflar hamda turli olimlarning nazariy qarashlari tahlil qilingan. Evfemizmlarning semantik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlari yoritilib, ularning noxush yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul tushunchalarni yumshatib ifodalashdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, evfemizmlarning zamonaviy diskurslardagi ahamiyati hamda ularni tadqiq etishning nazariy asoslari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: evfemizm, tilshunoslik, semantika, pragmatika, diskurs, kommunikatsiya, evfemik birliklar.

Abstract

This article examines the concept of euphemism in linguistics and analyzes the theoretical approaches and definitions proposed by various scholars. Particular attention is paid to the semantic, pragmatic, and communicative features of euphemisms, their role in mitigating undesirable meanings, and their significance in different types of discourse. The study demonstrates that euphemisms function not only as linguistic units but also as important tools for ensuring effective communication and maintaining social and cultural norms.

Keywords: euphemism, linguistics, semantics, pragmatics, discourse, communication, euphemistic expressions.

Аннотация

В данной статье рассматривается понятие эвфемизма в языкознании, анализируются научные определения и теоретические подходы различных исследователей. Особое внимание уделяется семантическим, прагматическим и коммуникативным особенностям эвфемизмов, их роли в смягчении нежелательных значений и значимости в различных типах дискурса. Исследование показывает, что эвфемизмы выступают не только как языковые единицы, но и как важное средство обеспечения эффективной коммуникации и соблюдения социальных и культурных норм.

Ключевые слова: эвфемизм, языкознание, семантика, прагматика, дискурс, коммуникация, эвфемистические единицы.

Jamiyat taraqqiyoti bilan bir qatorda ilm-fan, texnologiya va ijtimoiy munosabatlar ham muntazam ravishda rivojlanib boradi. Har bir yangi hodisa va yangilik esa o'z navbatida yangi tushunchalar hamda ularni ifodalovchi til birliklarining yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Shu jihatdan til jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib, insonlar o'rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlash, voqelikni aks ettirish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilning eng muhim vazifalaridan biri fikrni aniq, ta'sirchan va kommunikativ jihatdan maqbul shaklda ifodalashdan iboratdir. Nutq jarayonida har qanday tushunchani bevosita ifodalash hamisha ham kommunikativ maqsadga muvofiq bo'lavermaydi. Ayrim hollarda

salbiy, noxush, qo‘pol yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul deb baholanuvchi tushunchalarni yumshatib ifodalash zarurati yuzaga keladi. Ana shunday vaziyatlarda tilning muhim uslubiy vositalaridan biri bo‘lgan evfemizmlardan foydalaniladi.

Evfemizmlar ma’lum bir tushunchaning salbiy yoki noqulay jihatlarini yumshatgan holda ifodalashga xizmat qiluvchi leksik birliklar bo‘lib, ular kommunikativ jarayonda adresatning hissiy holatini hisobga olish, nutq madaniyati talablariga rioya qilish hamda muloqot samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu sababli evfemizmlar tilshunoslikda semantik, pragmatik va diskursiv jihatdan muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida qaraladi.

Ma’lumki, inson nutq faoliyati muayyan axloqiy va madaniy me’yorlar asosida shakllanadi. Muloqot jarayonida suhbatdoshga nisbatan hurmat saqlash, noqulay vaziyatlarni yumshatish va salbiy emotsional ta’sirni kamaytirish ehtiyoji evfemizmlarning yuzaga kelishi hamda faol qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi.

Axloqiy va madaniy jihatdan qo‘llanilishi ta’qiqlangan yoki noqulay deb topilgan so‘zlar o‘rniga boshqa so‘z va iboralarning qo‘llash mumkinligini tilshunoslikda evfemizmlar deb ataladi. Demak, evfemizm “yunoncha eu- “yaxshi”, phemi- “gapiryapman yoki gapiraman” so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, og‘zaki yoki yozma nutqda qo‘llaniladigan, ma’nosi neytral “vazifasi”ga ko‘ra emotsional bo‘lgan so‘z bo‘lib, qo‘pol yoki “beodob” so‘zlar o‘rniga qo‘llaniladi[1]”.

Hojiyevning 2002-yilda qayta nashr qilingan “Lingvistik terminlar izohli lug‘ati” da evfemizmga quyidagicha izoh beriladi: “Evfemizm narsa-hodisaning ancha yumshoq shaklidagi ifodasi; qo‘pol, beadab so‘z, ibora va tabu o‘rnida qo‘pol bo‘lmagan, botmaydigan so‘z, iborani qo‘llash[2]”.

“Lingvistik adabiyotlarda evfemizmlarga turli xil ta’riflar beriladi. Ushbu ta’riflarda bu hodisaning funksiyalari aks etadi. Evfemizmning asl mohiyatini yanada aniqroq tushunish maqsadida tadqiq qilingan ta’riflarni 3 guruhga ajratish mumkin. Evfemizmlarning ushbu ta’riflarda ifodalangan funksiyalari asos sifatida olindi. Evfemizmlar insoniyat tildan foydalanish jarayonidagi keng tarqalgan fenomen hisoblanadi. U odamlar orasida muloqotni yaxshilashga xizmat qiladi. Muloqotni bir tekisda ketishini ta’minlaydi, suhbatning yanada yumshoqlik bilan ta’sirli olib borilishini ta’minlaydi. Evfemizmlar nafaqat Vatanimiz, balki chet ellik olimlarning ham e’tiborini tortgan[3]”. Evfemik ma’no yuklangan ifodalar antik davrdan boshlab olimlarda qiziqish uyg‘otgan. “O. Freydenbarg tahriri ostida chop etilgan “Античные теории языкознания стиля” nomli asarda “evfemizm” tushunchasi Demokrit, Platon, Aristotel tomonidan ham tilga olinganligi haqida ma’lumot beriladi. Demak, bu til birligi haqida qadimgi davrlarda ham ma’lumotlarga ega bo‘lishgan, uni o‘rganishgan. “Dastlab, evfemizmlar XII—XV asrlarda ingliz tilida paydo bo‘lgan. XIV asrlarda fransuz madaniyati urf bo‘la boshlaydi, bu esa tilda ham o‘z aksini topadi” degan qarash ham bor. Ingliz tili tarixini o‘rgangan olim R. B. Choser nazmining evfemik birliklari misolida tadqiqot olib borar ekan, evfemizm she’riyatning juda qulay uslubiy vositasi ekanligini e’tirof etadi”[4]. “XVI asrning yarmiga kelib nutqiy madaniyatni yuksaltirishga bo‘lgan urinish kuchayib, Xudoning nomi, insonning nozik tana a’zolari va u bilan bog‘liq narsa-hodisalar nomini ishlatmaslikka qarshi kurash olib boriladi. Bu jarayon XVIII asrga qadar davom etib, S. Richerdsonning “Pamella” asarida ba’zi nozik vaziyatlarning evfemik shaklini juda madaniy tarzda qo‘llaganini ko‘rish[5]”. XIX asrdan boshlab qayta rivojlanish davrida, odamlar madaniyati, xulq-atvori ham o‘zgara boshladi va ba’zi bir qo‘pol so‘zlarning o‘rniga boshqa so‘zlardan foydalanish ehtiyojini sezishdi. Ayniqsa, XX asrga kelib esa inson a’zolari, jamiyatda bo‘layotgan turli ko‘ngilsizliklar, har xil yomon holatlarni chiroyliroq, salbiy ta’sir doirasini kamaytirish uchun ham evfemalashtirish ancha kuchaydi. Misol uchun XIX asr oxirida axloqiy senzuralar ancha kuchayib, Shekspirning asarlaridagi ayrim oila davrasida ovoz chiqarib o‘qib bo‘lmaydigan so‘zlarga T. Bodler o‘zgartirish

kiritib ancha mashhur bo‘lganligiyam, jahon lingvistika va adabiyotida evfemizmlarni qo‘llaganliklarini yaqqol ko‘rish mumkin. Evfemiya hodisasini ko‘plab tilshunoslar qo‘llaganligini aytib o‘tish mumkin. Jumladan, X. Qodirovaning “O‘zbek tilida evfemizmlar va dezevfemizm” haqida o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida B. Larin, A. Katsev, N. Boschayeva, L. Artyushkina, G. Kujim va boshqa tilshunos olimlar tomonidan turli tomondan o‘rganganligi to‘g’risida misollar keltirilib o‘tilgan: L. Artyushkina evfemizmning almashinishini va semantik tipini tadqiq etgan bo‘lsa, N. Boschayeva tomonidan uning pragmatik aspekti batafsil o‘rganiladi. G. Kujim evfemizmni tilning “meliorativ” vositasi sifatida yoritsa, A. Katsev uni ijtimoiy psixologik-jihatdan talqin etadi. Qayta nomlash bilan bog‘liq tomoni esa N. Berdova tomonidan tadqiq etiladi va izlanishlar natijasida evfemizmning 4 jihati aniqlanadi: lisoniy, psixologik, ijtimoiy, pragmatik. N. Potapova tilshunoslar tadqiqotlari natijasiga ko‘ra, ayni jarayonning quyidagi belgi (mezon)larini ko‘rsatadi: – denotatning stigmatikligi (salbiy bo‘yoqdorligi) (“stigma” tushunchasi N. Berdova tadqiqotida sharhlanadi: “Stigma ostida nafaqat predmetning antetsedentda aks etgan salbiy xususiyati, balki salbiy taassurot uyg‘otish xossalari ham tushuniladi”); – ijobiy bo‘yoq hosil qilish; – ifodaning asliyatini saqlash. Ye. Senechkina qo‘shimcha belgilarini ham ko‘rsatadi: – evfemizmning denotat salbiy bo‘yog‘ini yumshatuvchi semantik noaniqligi; – denotatni ijobiylashtirishda gap qaysi predmet yoki hodisa haqida ketayotganligining anglashilishini ta’minlovchi formal tabiati. U ushbu o‘lchovlarga javob bermagan ifoda evfemizm emasligiga va bu fikrga shu hodisani o‘rganishga harakat qilgan barcha olimlar qo‘shilishini ta’kidlaganligi haqida tilshunos X. Qodirova o‘z o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida keltirib o‘tgan[6].

Evfemizm hodisasi XX asr boshlarida umumtilshunoslikda J. Vandriyes, L. A. Bulaxovskiy[7] kabi tilshunoslar tomonidan soha bilan bog‘liq adabiyotlarda qayd etilgan bo‘lib, ularning fikr-mulohazalari evfemizm mohiyati tavsifining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. A. Reformatskiy tabu o‘rnida qo‘llanilayotgan evfemik birliklarni etnik taraqqiyot bilan bog‘liq deb hisoblaydi[8]. Tabuning paydo bo‘lishiga turli bid’at va xurofotlar sabab bo‘lganligini aytib, evfemizmlar uning nomini yopish uchun xizmat qilishini ta’kidlaydi. Evfemizmlar haqida ko‘pchilik tilshunoslar turlicha ta’riflarni keltirib o‘tishgan. Jumladan, bu haqida Kochkarova N. “Turk tilida tabu va evfimizmlarning qo‘llanish xususiyatlari” deya nomlangan magistrlik ishida J. Vandriyesning “Evfemizm – bu man etilgan lug‘atning muloyimroq va madaniyroq shakligina xolos’’ degan fikrlarini, L. Bulaxovskiyning esa “Evfemizmlar yomon fikr uyg‘otadigan narsa yoki hodisaning asl nomini almashtirish va ular haqida so‘z orqali yozuv kuchlarini chaqirish —xavfini tug‘dirmay gapirish, hammadan oldin xavfning oldini olish formulasidir[9]” degan fikrlarini keltirib o‘tgan. Turli lingvistik adabiyotlarda evfemizmlar ta’rifi turlicha berilsa ham, lekin ularning asl ma’nolari va maqsadi bitta hisoblanadi. Evfemizmlarni chuqurroq anglash uchun ularning ta’riflari 3 guruhga ajratiladi: Birinchi guruh evfemizmlarning qo‘pol va noxush hisoblangan so‘zlarni yumshatish funksiyasi tarafdorlari bo‘lgan olimlar hisoblanadi. D. Nimov va K. Silver evfemizmlarni noxush yoki achchiq haqiqatni noziklik bilan berkitish uchun qo‘llaniluvchi neytral so‘zlar ekanligini, S. Mametov va Z. Kulumbayevalar esa evfemizm deb aytilishi noxush bo‘lgan va muomala qoidalariga uyg’un bo‘lmagan qo‘pol, xunuk so‘zlarning o‘rniga boshqa so‘zlarning qo‘llanilishini ifodalashsa[10], X. Fauler bu tushunchani deyarli yuqoridagi tilshunoslar bilan bir xil fikrda, ya’ni qo‘pol va noxush bo‘lgan haqiqat o‘rnida qo‘llaniluvchi muloyimroq, noaniq iboralar ekanligini ta’kidlaydi[11]. Ch. Keynining o‘z fikrlarini qisman yuqoridagi olimlar fikrlari bilan yaqin, ammo farqli tarafi haqoratli yoki qo‘rquvni uyg’otuvchi so‘zni boshqa yumshoqroq termin bilan almashtirishni u aynan evfemizm deb ataydi[12]. I.P. Galperin ham deyarli A. Spirs fikriga mos mulohaza qiladi”[13] .

Ikkinchi guruh ta’riflarida asosiy yumshatish funksiyasidan tashqari ijtimoiy motivlarning muhimligi e’tiborga olingan: E. Partridj tinglovchiga yomon yoki noxush ta’sirini kamaytiradigan yoki so‘zlovchi yaxshi taassurot qoldirishi uchun yordam beradigan iboralar ekanligini aytgan. A. Katsev esa evfemizmni axloqiy va diniy motivlardan kelib chiqqan holda qo‘rqinchli, uyatli so‘zlarni o‘rnida qo‘llaniluvchi, yumshatish ta’siriga ega bo‘lgan so‘z va iboralardir”[14] deya ta’riflaydi. A. Katsevdan farqli o‘laroq L. Krisin evfemizm muloqotda kommunikativ konfliktlardan qochish, tinglovchida kommunikativ diskomfort hissini uyg‘otmaslik maqsadida qo‘llanililshini izohlagan[15 bo‘lsa, E. Tyurina bu tushunchani ma’lum sabablarga ko‘ra nisbatan o‘rinli deb hisoblanuvchi so‘z va iboralar bo‘lib, ular so‘zlovchi uchun jamiyatda qabul qilingan axloq normalari nuqtayi nazaridan ta’qiqlangan, noo‘rin, qo‘pol so‘zlar o‘rnida qo‘llaniladi deya e’tirof etgan[16]. Uchinchi guruhga kiruvchi ta’riflarda evfemizmning asosiy funksiyasi sifatida ma’lum bir tushunchani niqoblash funksiyasi olingan:

Dj. Lourens evfemizm fikrni (ma’lum sabablarga ko‘ra) yumshatilgan, qog‘ozga o‘ralgan holda ifoda etishi va bu yumshatish ko‘pincha soxta bo‘lishini aytgan. D. Nimov va K. Silver evfemizmlar noxush haqiqatni berkitish maqsadida qo‘pol, haqoratli deb hisoblanuvchi so‘zlar o‘rnida qo‘llaniluvchi terminlardir deya birinchi guruh tilshunoslari singari fikrda bo‘lishadi.

O‘zbek tilshunosligidayam evfemizmlarning qo‘llanilishi asoson XX asr oxiriga to‘g’ri keladi. 1963-64-yillarda esa N. Ismatullayevning “Hozirgi o‘zbek tilida evfemizmlar[17]” degan dissertatsiyasida juda ko‘p ma’lumotlarni kuzatish mumkin. 1997-yilda A. Omonturdiyev evfemizmni “Uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida allaqachon o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan mavzu[18]” sifatida keng doirada o‘rganib, o‘zbek nutqining turli evfemik asoslarini tadqiq qilishga urinadi va buning ustidan chiqadi. Tilshunos M. Mirtojiyevning “O‘zbek tili semasiologiyasi” monografiyasida tabu va evfemizm hodisalarining o‘zaro munosabati, ularning o‘rganilishiga doir masalalar ko‘rilib chiqiladi. Olim evfemik ma’noning hosila ma’no ekanligi, bu hosila ma’nolar metaforik, metonimik usullarda vujudga kelishini, sinekdoxik va vazifadoshlik asosida evfemik ma’no paydo bo‘lmasligini ta’kidlaydi[19]. 1983-yilda birinchi marta chop etilgan “O‘zbek tilining stilistikasi” nomli darslikda evfemizmlarning strukturasi, xususiyati va tilda ifodalanilishi ancha keng yoritilgan. “N. Ismatullaevning tabu va evfemizm haqidagi qarashlari davom ettirilib, 1997 yilda “Evfemik vositalarning funksional uslubiy xususiyatlari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan. Mavzu keng rejada ishlanib, “O‘zbek nutqining evfemik asoslari” nomli monografiya, shuningdek, “Bir so‘z lug’ati”, “So‘z qo‘llash san’ati” (hamkorlikda) va “O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug’ati” kabi ishlar nashr qilingan”[20].

1997-yilda A. Omonturdiyev evfemizmni uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida allaqachon o‘z yechimini topishi kerak bo‘lgan mavzusi sifatida keng doirada o‘rganib, o‘zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. U evfemizmlarni etimologik, ijtimoiy-madaniy aspektda o‘rganish kerak deb hisoblaydi. Evfemizmlarni qo‘llanish darajasiga ko‘ra umumnutqiy va xususiy nutqiy evfemaga ajratib, ifoda usullarini o‘rganadi. Tasnifiy xarakterdagi bu izlanish o‘zbek tilidagi evfemik birliklar haqida ko‘proq amaliy ma’lumot beradi[21]. Davr yangilanganligi sari deyarli barcha sohalarda evfemizmlarning o‘rni beqiyos bo‘la boshladi. Har bir sohada ularning qo‘llanilishi keng qamrovda.

O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar va nazariy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, evfemizm tilshunoslikning ko‘p qirrali va murakkab hodisalaridan biri hisoblanadi. Turli davrlarda faoliyat yuritgan olimlar tomonidan unga turlicha ta’riflar berilgan bo‘lsa-da, ularning aksariyatida evfemizmlarning salbiy, qo‘pol yoki ijtimoiy jihatdan nomaqbul hisoblangan tushunchalarni yumshatilgan shaklda ifodalash vazifasi asosiy mezon sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot natijalari evfemizmlarning nafaqat semantik, balki pragmatik va ijtimoiy funksiyalarga ham ega ekanligini ko‘rsatdi. Ular kommunikativ noqulayliklarning oldini

olish, suhbatdoshga nisbatan hurmatni saqlash, salbiy emotsional ta’sirni kamaytirish hamda muayyan axborotni bilvosita shaklda yetkazishga xizmat qiladi. Shu sababli evfemizmlar zamonaviy media, siyosiy, tibbiy va boshqa diskurs turlarida faol qo‘llanilayotgan muhim lingvistik vositalardan biri hisoblanadi.

Nazariy manbalar tahlili asosida evfemizmlarni o‘rganishda semantik yondashuv bilan bir qatorda pragmatik va diskursiv yondashuvlarning ham muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Chunki evfemik birliklarning mohiyati faqat ularning lug‘aviy ma’nosida emas, balki muayyan kommunikativ vaziyatda bajaradigan funksiyasida ham namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, evfemizm hodisasi tilning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiruvchi, nutq madaniyatini ta’minlovchi hamda jamiyatning axloqiy-madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik fenomen sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Кацев А. Языковое табу и эвфемия. – Л.: ЛГПИ, 1989. – С. 15.
2. Хожиев А. Лингвистик терминлар изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1974. – Б. 56.
3. Azizova A.M. Koreys va o‘zbek lingvomadaniyatida evfemizmlarning qiyosiy tahlili, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent, 2019, 9-b.
4. Qodirova X.B. O’zbek tilida evfemizm va disevfemizm o’quv-uslubiy qo’llanma. Toshkent, Yangi Asr Avlodi, 2013, 3-bet.
5. Омонтурдиев Ж., Омонтурдиев А. Сўз қўллаш санъати. – Т.: Бойсун, 1994. – Б. 60.
6. Qodirova X. O’zbek tilida evfemizm va disevfemizm o’quv-uslubiy qo’llanma. Toshkent, Yangi Asr Avlodi, 2013, 7-bet.
7. Булаховский Л. Введение в языкознание. – М.: Букинист, 1954 – С. 174.
8. Реформатский А. Введение в языкознание. – М., 1967. – С. 204.
9. Kochkarova N. Turk tilida tabu va evfimizmlarning qo’llanish xususiyatlari. Magistrlik dissertatsiyasi, Toshkent, 2014, - B. 8.
10. Mamıtov C., Kulumbayeva Z., Turkiyat Araştırmaları Enstitusu Dergisi. Sayı 29. Erzurum, 2006 71 Prof. Dr. Zeki Başar Ozel Sayısı 5 Azırkı Kırgıztili. – F., 1971. – S. 25.
11. Holder R. A dictionary of euphemisms. – L.: Oxford University Press, 1995. – P.470.
12. Кару С. American-Spanish euphemisms. – L.A.: University of California, 1960. – P. 5.
13. Гальперин И. Проблемы лингвостилистики // Новое в лингвистике. – М., 1980. – С.5-68.
14. Кацев А. Языковое табу и эвфемия. Ленинград, ЛГПИ, 1989, С.79.
15. Крысин Л. Эвфемизмы в современной русской речи // Русский язык конца XX столетия (1985-1995), Москва, 1996, С. 391.
16. Тюрина Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка (на материале современного английского языка): Автореф. дис. канд. филол. наук. – Н.Н., 1998. – С. 18.
17. Исматуллаев Н. Эвфемизмы в современном узбекском языке: Автореф. дисс… канд. филол. наук. – Т., 1963. – С. 19.
18. Омонтурдиев А. Эвфемик воситаларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди. дис. – Т., 1977. – Б. 176.
19. Azizova A. Koreys va o‘zbek lingvomadaniyatida evfemizmlarning qiyosiy tahlili, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, Toshkent, 2019, 17-b.
20. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Т.: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 119-127.
21. Омонтурдиев А. Эвфемик воситаларнинг функционал услубий хусусиятлари. филол. фан. номзоди. дис. – Т., 1997. – Б. 175.